

**ТОШКЕНТ АРХИТЕКТУРА ҚУРИЛИШ ИНСТИТУТИ
МУҲАНДИСЛИК ҚУРИЛИШ ИНФРАСТРУКТУРАСИ
ФАКУЛЬТЕТИ**

“Қурилиш материаллари, буюмлари ва конструкциялари технологияси”
кафедраси

5140900-Касб таълими (5580500-“Қурилиш материаллари ва буюмлари
ишлаб чиқариш технологияси”) йўналиши

“Тасдиқлайман”

Махмудова Н.А. _____

(м.у.) “_____” _____ 201__ й.

ДИПЛОМ ЛОЙИҲАСИНИ БАЖАРИШ УЧУН ВАЗИФА

Талаба **Қурбанова Навбахор Шавкат кизи**

1. Диплом лойиҳасининг мавзуси **Қўшимчалар асосида саноат
бинолари учун темир-бетон бир консолли ўстун ишлаб чиқариш
корхонасини лойиҳалаш, маҳсулдорлиги 44 минг м³. Тошкент ш.
ТБЗ-2. “Қўпчитилган вермикулит ва ўнинг маҳсулотлари
хусусиятлари ва хомашёси” мавзусини ўқитишда инновацион
педагогик технологиялардан фойдаланиш институт ректори
буйруғи билан тасдиқланган № 2/224 02.10.2013 йил.**

2. Диплом лойиҳасини дастлабки ҳимояга тақдим этиш вақти _____

3. Мавзу бўйича адабиётлар рўйхати: _____

1. Акрамов Ҳ.А., Нуритдинов Ҳ.Н. Бетон ва темир-бетон буюмлари ишлаб чиқариш. Ўқув қўлланма, I ва II қисм. Т., Ўзбекистон, 2012й.
2. Акрамов Ҳ.А. Нуритдинов Ҳ.Н. Бетон технологияси. Ўқув қўлланма. Т., 2012й.
3. Акрамов Ҳ.А. Нуритдинов Ҳ.Н. Бетон ва темир-бетон буюмлари ишлаб чиқариш технологияси. Дарслик. Т., Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2011й.
4. Асқаров Б.А. Қурилиш конструкциялари. Т., Ўзбекистон, 1995й.
5. Акрамов Ҳ.А. Қурилиш ашёлари саноати корхоналарини лойиҳалаш. Т., Ўзбекистон, 2003й.
6. Ўз.РСТ 707-96. Бетон. Правила подбора состава.

4. Ҳисоб – тушунтириш хатининг мазмуни: _____

*Кириш. Технологик қисм. Маҳсулот номенклатураси. Ишлаб
чиқариш усулини танлаш ва асослаш. Корхонанинг иш режими.
Буюм турлари бўйича корхона маҳсулдорлигини ҳисоблаш. Хом ашё
ва ярим фабрикаларга цех (корхона)нинг талабини аниқлаш.*

Технологик линияларни лойиҳалаш. Ишлаб чиқаришни стенод линияси ҳисоби. Технологик асбоб-ускуналарни танлаш ва ҳисоблаш. Цемент омбори ҳисоби. Тўлдирувчилар омбори ҳисоби. Бетон қориш цехи ҳисоби. Тайёр маҳсулотлар омбори ҳисоби. Ҳисобий қисм. Иқтисодий қисм. Меҳнат муҳофазаси ва техника хавфсизлиги. Педагогик қисм. Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.

5. Чизма материалларнинг рўйхати: Бош режа. Ишлаб чиқариш корхонаси режаси ва қирқими. Цемент омбори. Тўлдирувчилар омбори. Ҳисоб қисми. Педагогик қисм.

6. Лойиҳа бўйича маслаҳатчилар _____

№	Қисмлар	Маслаҳатчи	Имзо, сана	
			Топширик берилди	Топширик қабул қилинди
1	Технологик			
2	Ҳисобий			
3	Иқтисодий			
4	Педагогик қисм			
5	Меҳнат муҳофазаси			

5. Диплом лойиҳа бажариш графиги _____

№	Лойиҳа қисмларининг бажарилиши	Бажарилиш муддатлари	Бажарилиши бўйича белги (раҳбар имзоси)
1	Технологик		
2	Ҳисобий		
3	Иқтисодий		
4	Педагогик қисм		
5	Меҳнат муҳофазаси		

Диплом лойиҳа раҳбари _____ Махмудова Н.А.
(Ф.И.О.) имзо

Кафедра мудири _____ Махмудова Н.А.
(Ф.И.Ш.) имзо

Бажариш учун вазифани қабул қилди _____
(талаба имзоси)

“ ” _____ 201_ й.

Mundarija

KIRISH

1. Texnologik qism

1.1. Mahsulot nomenklaturasi

1.2. Ishlab chiqarish usulini tanlash va asoslash

1.3. Korxonaning ish rejimi

1.4. Buyum turlari bo'yicha sex mahsuldorligini hisoblash

1.5. Xom ashyo va yarim fabrikatlarga korxonaning talabini aniqlash

Beton tarkibini hisoblash

1.6. Texnologik linyanlari loyihalash

Stendlarni hisoblash

1.7. Texnologik uskunani tanlash va hisoblash

1.8. Sement omborini hisoblash

1.9. Toldiruvchilar omborini hisoblash

1.10. Beton qorish sexini hisoblash

1.11. Tayor mahsulotlar omborini hisoblash

2. Hisobiy qism

3. Iqtisodiy qism

4. Pedagogik qism

5. Mehnat muxofazasi va texnika xavfsizligi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

KIRISH

Kelajagi buyuk O'zbekistonni barpo etishda faol qatnashayotgan xar bir fuqaro o'z mamlakati, xalqi, millatining ajralmas bo'lagi ekanini anglashi – milliy ma'naviyat va ongning tarkibiy qismidir. Ilg'or millat va rivojlangan davlat bo'lishning zaruriy shartlaridan biri-boy ma'naviyatga ega bo'lishdir.

Prezident I.A. Karimov: «Ma'naviyat – insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-kudratidir». Shunday ekan, ma'naviyat va ma'rifatni ko'tarish, targ'ib qilish, boyitish xar bir fuqaroning yuksak ma'naviy darajasini ta'min etish eng dolzarb masalalardan biridir.

Xar qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, xayotiy qadriyatlardan ayri xolda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada tabiiyki ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'xna tarixiy yodgorliklar eng muxim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Iqtisodiyotning real sektori korxonalarni qo'llab quvvatlash buyicha birinchi navbatda ishlab chiqarishni moderinizatsiya qilish koperatsiyada aloqalarni kengaytirish mustahkam aloqani va hamkorlikni yo'lga qo'yish mamlakat tizimida ishlab chiqarishdan mahsulotlarga talabni rag'batlantirish masalalarini alohida o'rin tutadi.

Davlat tomonidan qo'llab quvvatlash maqsadida 50 ta korxonaning byudjetidan va byudjetdan tashqari jamg'armalarga to'lov bo'yincha muddati o'tgan hamda joriy kreditlar qarzdorligini qayta ko'rib chiqiladi. Bu mazkur korxonalar tasarrufida 350 mlrd so'mdan ortiq mablag'ni qondirish ularning ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirish imkonini berdi.

Sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarilayotgan mahsulot tan narxi 18% ga kamaydi. "Olmaliq tog' kon metalurgiya kombinati", "O'zkommetkombinat" aksiyadorlik ishlab chiqarish combinati", "O'zqurilishmateriallari" kompaniyasi singari va boshqa korxona va tarmoqlarida 20-25 % ga kamayadi. Investitsiya dasturini amalga oshirishda investitsiyalarni jalb etish ichki manbalarni safarbar etish hisobidan iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlarini jadal modernizatsiya

qilish texnik va texnologik qayta jihozlash transport kommunikatsiyalarni yanada rivojlantirish va ijtimoiy infratuzilma obyektlari va ijtimoiy barpo etish hal qiluvchi ustuvor yo'nalishga aylanadi.

Investitsiya dasturi va texnik modernizatsiyalash bo'yicha tarmoq dasturlar doirasida 2012 yil mobaynida 690 ta investitsiya loyihalash amalga oshirildi ularning 303 tasi muvaffaqiyatli yakunlandi.

Respublikamizda jami 22 yirik ishlab chiqarish obyekti jumladan neftgaz, kimyo, metallurgiya sanoatida 8 ta mashinasozlik sanoatida 9 ta qurilish industriyasida 5 ta obyekt foidalanishga topshirildi. "Qishloq qurilish bank" va "Qishloq qurilish loyiha" loyihalash instituti kabi ixtisoslashtirilgan tuzilmalar tashkil etildi. Uy-joy obyektlari qurilishi bo'yicha 22 ta na'munaviy loyiha ijtimoiy obyektlar qurilish bo'yicha 16 ta loyiha kompleks qurilishlar bo'yicha na'munaviy rejalar ishlab chiqariladi va bu loyihalar respublika va mintaqaviy ko'rgazmalarda keng muhokama etilganidan keyin tasdiqlanadi. Shu borada ixtisoslashtirilgan "Qishloq qurilish invest" buyurtma tashkil etildi. Mamlakatimiz bo'yicha 42 ta massivda yangi uy joylar qurilish boshlab yuborildi.

2014 yilgi investitsiya dasturi doirasida faqat uy joy qurilishi uchun "Qishloq qurilish banki" orqali aholiga 250 milliard so'mdan ortiq imtiyozli kreditlar ajratish ko'zda tutilgan. Bu 20 yilda ushbu maqsadlarda yo'naltirilgan mablag' miqdoridan to'rt marta ko'p demakdir. Aniq vaqtda yakka tartibda quruvchilarning o'zlari ham 70 mlrd. so'mga yaqin mablag' sarf etilishi kutilmoqda.

2014 yilda mamlakatimizda barcha 159 ta qishloq tumanida umumiy qiymati 470 mlrd dan ortiq bo'lgan 77 ming 630 ta uy joy qurilishi rivojlantirilgan. Bunda nafaqat zamonaviy va qulay kotejlar qurish, ya'ni vaqtda bolalar bog'chalari umumta'lim maktablari sport inshootlari tibbiyot muassasalari xizmat kursatish obyektlarining va ravon yo'llar qurish ko'zda tutilgan. Mamlakatimizda barcha zarur ijtimoiy va kommunikatsiya infratuzilmasiga ega bo'lgan izchil rivojlanib ishlanayotgan va iqtisodiy nochor

korxonalarni sog'lomlashtirish jarayoniga jalb qilish tajribasi amalda o'zini to'la oqladi. Shu sababli eski texnika va mexanika asosida ishlayotgan har qanday iqtisodiy istiqbolli bo'lmagan korxonalarni tugatish va ularning negizida yangi zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish maqsadida ko'p ishlar amalga oshirilmoqda.

2014 yilda mahalliyashtirish asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi o'tgan yilgacha nisbatan 40% ga o'sishi shu borada ekspert qilinadigan mahsulotlarning ulushi esa kamida 12% ni tashkil etilishi kutilmoqda. Qishloqda uy joy qurilish va ijtimoiy infratuzilmaga rivojlantirish jadallashtirish dasturining 2013 yilning muhim ustuvor yo'nalishlari qatoriga kiritilishiga to'la asos bor.

Birinchi navbatda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash uchun qulay tashkiliy-huquqiy sharoitlar yaratishga qaratilgan qonunchilik va me'yoriy bazani yanada takomillashtirish, yangi qoida va me'yorlarni ishlab chiqish bo'yicha chora-tadbirlar belgilangan.

“Sog'lom bola yili” Davlat dasturida oilada mehr-oqibat va o'zaro hurmat muhiti, yuksak ahloqiy va ma'naviy qadriyatlarni barqaror qilish, yosh oilalarni moddiy qo'llab-quvvatlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, ona va bola salomatligini mustaxkamlash, xotin-qizlar o'z iqtidorini ro'yobga chiqarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularning kundalik ro'zg'or yumushlarini yengillashtirish kabi vazifalar belgilangan.

Mamlakatda 130 madaniyat va dam olish markazlarining moddiy-texnik bazasini mustaxkamlash, o'n beshta yangi madaniyat va istirohat bog'larini barpo etish, mavjud 29 tasini rekonstruksiya qilish va ta'mirlash rejalashtirilgan.

Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi qurilish rejalariga sanitariya talablari va qurilish qoidalariga rioya qilish ustida qat'iy tuzumli nazorat o'rnatish lozim. Aholi yashash joylarining tabiiy iqlimiy sharoiti va relefini yurtimiz hududlarining ijtimoiy demografik xususiyatlarini hisobga olgan zamonaviy qurilish materiallari va uy-joylar loyihalarini takomillashtirish lozim yuqori burchagida joylashtirilishi singari hayotiy omillarning e'tiborga

olinayotgani kattayu kichikka maqul tushmoqda. 2013 yilda qishloq odamlarining baxtli va farovon turmush kechirishini ta'minlashga qaratilgan islohotlar bundan keyin ham izchil davom ettirish maqsadida respublikamizning 276 ta massivida 8510 ta zamonaviy uy-joy qurish vazifalari belgilanadi.

2014 yilda "O'zqurilishmateriallari" AK tomonidan yangi turdagi qurilish materiallarini ishlab chiqarishni o'zlashtirish borasida aniq chora tadbirlar belgilangan bo'lib ular jumlasidan zamonaviy g'isht ishlab chiqaruvchi korxonalarni ishga tushirish qishloq aholi punktlarida zamonaviy tomyopgich materiallarini ishlab chiqarish bo'yicha 6 ta ishlab chiqarish obyektlarini ishga tushirish zamonaviy bezaklovchi materiallarni ishlab chiqaruvchi yangi quvvatlarni ishga tushirish 6 ta tiklash va rekonstruksiya qilish hamda ularning quvvatini oshirish singari yirik qurilish inshootlari o'rin olgan.

"Qishloq qurilish invest" injineriing kompaniyasi jamoasi tomonidan massivlarning topilmasini geologiya va ishchi loyihalarni tayorlanib qurilish uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni imtiyozli narx va belgilangan muddatlarda yetkazib berish bo'yicha jadval ishlab chiqilishi hamda quruvchi qurilish tashkilotlari o'rtasida tender tanlovlarini o'tkazish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki qurilish jarayononi namunali tashkil etish ishni tez va sifatli boshqarishga xizmat qiladi.

I. Texnologik qism

1.1. Mahsulot nomenklaturasi

Turli buyum va konstruksiyalarni tayorlash usulidan aynan birini tanlash o'sha usulning turli texnologik o'ziga xosligi va ishlab chiqarish hajmiga bog'liq bo'ladi. Shu bilan birga aynan bir buyumni ishlab chiqarishda texnik iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisobga olish ham ahamiyatlidir.

Yuqorida aytilgandek, temir-beton buyumlari quyidagi xususiyatlarga ko'ra bo'linadi: qaysi yo'nalishda ishlatilishiga ko'ra: sanoat, uy, fuqaro qurilishi uchun: bino va inshootda ishlatilish o'rniga ko'ra: fundament tom qoplamasi, devor va xonalar uchun; geometrik shakliga ko'ra; ustunsimon plitali blokli panjarali ko'ndalang kesimning shakli va xususiyatiga ko'ra; uzluksiz g'ovak qovurg'ali qat-qat armatura qo'yilishiga ko'ra; betonli, temir-betonli, beton turiga ko'ra; og'ir, yengil, yacheykali beton.

Tayorlash texnologiyasini tanlash buyumning shakli o'lchamlari og'irligi beton turi va armaturani qo'yilish usuliga ko'ra tanlanadi.

1.1-jadval

Ishlab chiqarish uchun qabul qilingan buyumlarning asosiy ko'rsatkichlari

№	Buyum markasi	Buyum eskizi	O'lchov birliklari, mm			Bitta buyum uchun beton sarfi m ³	Bitta buyum uchun po'lat armatura sarfi kg	1 m ³ beton uchun po'lat armatura sarfi kg/m ³
			Uzunligi L	Eni B	Balandligi H			
1	Bir konsolli ustun		600	600	12800	2,8	176,2	62,9

1.2. Ishlab chiqarish usulini tanlash va asoslash

Yig'ma beton va temir-beton buyumlarini ishlab chiqarishdagi texnologik jarayonlar qator mustaqil operasialardan tashkil topib alohida jarayonlarga birikadi. Operasialardan shartli ravishda: asosiy yordamchi va transportli turlarga bo'linadi.

Kolonnalarda rigellarni o'rnatish uchun konsollar chiqariladi. Kolonnalar M200-M500 markali og'ir betondan va M200-M400 markali konstruksion yengil betondan tayyorlanadi. Kolonnalar A-III klassga mansub po'latdan tayyorlangan fazoviy karkaslar bilan armaturalanadi. Ularni esa agregat-potok va stend usulida tayyorlanadi.

Kolonnalar - bir qavatli sanoat binolarini yig'ma karkaslarini asosiy elementlari. Bino balandligi poldan stropila fermasini ostigacha 10,8 m bo'lganda va bino kransiz, osma kran va ko'prik kranlari bilan jihozlanganda massasi 12,4 t gacha, kesimi to'g'ri to'rt burchakli kolonnalar ishlatiladi. Bunday kolonnalarni uzunligi 4,5- 11,8 m, kranlarni yuk ko'tarish qobiliyati 10-20 t bo'lganda kolonnalarni maksimal kesimi: 400x600, 400x800 va 500x800 mm; ularni M200-M500 markali betondan tayyorlanadi.

Ko'prik kranlarini yuk ko'tarish qobiliyati 50t gacha bo'lgan, balandligi 10,8 m dan 18 m gacha bo'lgan sanoat binolarida ikki tayanchli kolonnalar ishlatiladi, ularni 11,85-19,35 m, kran osti qismini kesimi 400x1000 – 600x1900 mm ni tashkil etadi. Bunday kolonnalar M300-M500 markali betondan tayyorlanadi va A-I, A-III klassli po'lat sterjenli armatura bilan armaturalanadi.

Yuqorida qayd etilgan kolonnalarning na'munaviy konstruksiyalaridan tashqari samaraliroq kesimdagilari ishlab chiqariladi - ikki tavrli, doiraviy (markazdan qochirma usulida tayyorlanadi), hamda oldindan zo'riqtirilgan armaturali kesimi boshqa shakllardagi.

To'sinli orayopmali binolarda to'g'ri burchakli kesimdagi 400x400 va 500x500 mm o'lchovli kolonnalar keng qo'llaniladi. Kolonna uzunligi qavat balandligiga bog'liq va 3,6-7,2 m da bo'lib, ayrim hollarda yuqori qavatlarni

balandligi 10,8 m ga yetadi. Kolonnani uzunligi binolarni pastki qavatlar uchun ikki qavatga tayyorlanadi, qavat balandligi 3,6 m gacha bo'lgan binolar uchun 3 qavatga bajariladi.

Kolonna uzunligi 15 m ga yetadi. Kolonnalar M300-M500 markali betondan tayyorlanadi, ularni payvandlangan A-III klassga mansub po'lat karkaslar bilan armaturalanadi. Kolonnalar 400x400, 500x500 va 600x600 mm kvadrat kesimga ega, kolonnalarda kaotellarni o'rnatish uchun to'rt tomondan konsollar chiqariladi. Kolonnalar uzunligi qavat balandligiga bog'liq va 3,8-7,63 m bo'ladi.

Kran osti to'sinlari M400-M500 va M600 markali oldindan zo'riqtirilgan betondan tayyorlanib, kolonnalar oralig'i 6 va 12 m bo'lganda uzunligi 5,95 va 11,95 m li balkalar tayyorlanadi. Yuk ko'tarish qobiliyati 5, 10, 20 va 30 t li ko'prik kranlarini ishlashi uchun oralig'i 6 m va tavr kesimli bo'lganda, balandligi 800 mm, eni 600 mm va qalinligi 120 mm li balkalar ishlatiladi. Qovurg'asining qalinligi pastda 200 mm, yuqorisida 250 mm, tayanish qismida qovurg'a 300 mm gacha qalinlashadi, betonning markasi M400-M500, po'lat sterjenli yoki kanatli zo'riqtirilgan armatura qo'llaniladi.

Kalonna oralig'i 12 m uchun sinchli stropila osti fermalari ishlatiladi, ular trapetsiya ko'rinishiga ega va 11,95 m li stropil fermalari o'rnatish uchun qo'llaniladi. Balkalar pastki belbog'i oldindan zo'riqtirilgan A-IV sterjenli armatura va A-V armatura qo'llaniladi. Uning qolgan elementlari A-I va A-III klassga mansub sterjenli armaturadan payvandlangan karkaslar bilan armaturalanadi. Stropil balkalari kalonna qadami 6m va 6,9,12 m li sanoat binolarini yopish uchun ishlatiladi. Kalonna to'ri 18x12 m li uchun uzunligi 12 m li stropil balkalari qo'llaniladi.

Asosiy operatsiyalar beton qorishmasining tayyorlanishi va qorishmani tashkil qiluvchi materiallarni tayyorlash: armatura mahsulotlari va tayor karkaslarning tayyorlanishi mahsulotlarni armaturalash va qoliplash; qoliplangan mahsulotga issiqlik bilan ishlov berish; tayor mahsulotni qolipdan

ko'chirish va qoliplarni keyingi siklga tayorlash bazi bir mahsulotlarning yuza qismini pardozlashdan iborat.

Asosiy texnologik operasialardan tashqari har bir bosqichda yordamchi operasialar ham bajarildi; suv va bug'larning siqilgan havo elektr energiyasining olinishi va uzatilishi xom ashyo va yarim tayor mahsulotlarning saqlanishi operasialar va tayor mahsulotlarning sifatini nazorat qilish va boshqa asosiy operasialarni bajarish uchun zarur etaplar olib boriladi.

Transport vositasi bilan bajariladigan operasialar bu materiallar yarim tayor mahsulotlar va tayor mahsulotlarni holat va qolipini o'zgartirmay ko'chirishdir. Bajariladigan operasialarga mos qo'llaniladigan asbob-uskunalar bajaradigan vazifasiga qarab asosiy-texnologik yordamchi va transport deb ataladi. Asosiy va transport asboblarida ma'lum ketma-ketlikda bajarish uchun mo'ljallangan operasialar texnologik tizim deyiladi. Yig'ma temir beton ishlab chiqarishda eng taraqqiy etib rivojlanayotgan texnologik jarayonni tashkil etish uzluksiz ishlab chiqarish va tayorlanayotgan mahsulotning turiga qarab texnologik tizimni nihoyatda maxsuslashtirishdir.

Uzluksiz ishlab chiqarishning asosiy qonun qoidasi o'rnatilgan asbob-uskunalaridan to'liq foidalanish mexanizasiya kompleksi ishlab chiqarish jarayonini avtomatlashtirishni nazarda tutish kerak. Bu qoida har bir ish joyida bajariladigan operasialarning sikl davrini bir-biriga moslashgan holda bir maromda bajarilishini o'z bo'yniga oladi.

Bir maromda ishlash uchun ma'lum operatsiyani bajarishda o'rnatilgan vaqt miqdorini doimiy bo'lishiga va qat'iy vaqt intervali bilan siklga rioya qilish talab qilinadi. Sinxronlash texnologik tizimda operatsialarni bir-biriga moslab alohida qismlarga bo'lishda har bir qismdagi operasialarning sikl muddati shu texnologik potokning har bir qismdagi sikl muddatiga teng bo'lishini ta'minlaydi. Sikl 2 yoki 3 marta katta bo'lgan oqimli qismlarda ishchi yoki moslama o'rnini ham mos darajada oshirilishi kerak chunki boshqa tizimda qismlarda ishlab chiqarish imkoniyati pasaymasligi kerak va qabul qilingan

maromda mahsulot olinishi kerak. Uzluksiz oqim mahsulotni qismdan qismga uzatilishida ishlab chiqarish maydonida unumliroq foidalanish imkonini beradi.

Temir-beton mahsulotlari ishlab chiqariladigan zavod tarkibiga quyidagi: sexlar, inshoot va binolar, bog'lovchi to'ldiruvchi va po'lat armatura omborxonasi, beton qorish sexi, armature sexi, qoliplash sexi beton qotishini tezlashtirish, pardoqlash va mahsulotlarni yig'ish yordamchi xizmat va ma'muriy maishiy binolar, sexlararo va sexlar ichidagi transportlar vodoprovod va kanalizasiya, issiq va energetik quvvatlar xo'jaligi nozimxona va aloqa tarmoqlari kiradi.

Turli zavod va kombinatlarning bajaradigan vazifalariga ko'ra bosh loyihasi o'zaro bir-biriga yaqin faqat korxona quvvatiga bog'liq o'lchov va o'rnatish echimlari va ishlab chiqariladigan konstruksiya nomi bilan farq qiladi. Qoliplovchi texnologik qatorlar beton qotishini tezlatuvchi bo'limlar bilan shuningdek armatura tayorlovchi va armatyrali karkaslar qatorini bajaradigan jarayonlar bilan o'zaro bog'liqligini hisobga olib joylashtiriladi.

Ishlab chiqariladigan mahsulot samarasi asosan murakkab va ko'p mehnat talab qilinadigan asosiy texnologik operatsiyalarning bajarilishi mahsulotni qoliplash va beton qotishini tezlatishga bog'liq. Bu operatsiyalar maxsus mashina mexanizmlar va asbob uskunalar qo'llaniladigan texnologik tizimning mahsulot tayorlash usulini aniqlaydi. Yig'ma temir-beton zavodlarida texnologik jarayonlarni tashkil etishda potok usuli qabul qilingan.

Uning mohiyati shundan iboratki, butun jarayon ayrim operatsiyalarga bo'linadi, ular maxsus uskunalar bilan jihozlangan alohida ish joylarida qat'iy ketma - ketlik bilan bajariladi. Har bir ish joyida qabul qilingan ishlov berish usuli asbob uskuna va tashkiliy tizim bir yoki bir necha o'zaro yaqin texnologik operatsiyalar bajariladi. Operatsiyalarni har bir ish joyida to'liq sinxronlash jarayonini yanada detallar bo'yicha boshqa operatsiyalarga bo'lish bilan erishiladi.

Yig'ma temir - beton ishlab chiqarishda ishlab chiqarishni tashkil qilishning ikki usuli keng tarqalgan: ko'chma va ko'chmas qoliplarda ular bir -

biridan qolip, mahsulot, mashina va ishchilarni ko'chish shartlari bilan farq qiladi.

Mahsulotlarni ko'chma qoliplarda tayorlashda texnologik jarayon 3 asosiy usul bilan tashkil qilinadi: agregat potok va yarim konveyr hamda davriy va to'xtovsiz harakatlanadigan konveyr usullarida. Bu usullarda bir yoki bir necha bir - biriga bog'liq operatsiyalar bajarish uchun postlarga birlashtiriladi. Texnologik jarayonni ko'chmas qoliplarda tashkil etish stend va kasseta usullari bilan bajariladi.

Linyalarning turi va soni buyumning nomi va korxonaning ishlab chiqarish quvvatiga ko'ra tanlanadi. Texnologik liniya va uskunalarni tanlash buyum konstruksiyasi va texnologik ko'rsatkichlarning qoliplash va qotish vaqtidagi muvofiqligiga ko'ra tanlanadi.

Ko'p temir-beton buyumlari uchun quyidagi parametrlar olinadi: betonning turi va markasi, buyumning shakli, kesmasining o'ziga xosligi geometric o'lchami va undan og'ish chegarasi armaturaning turi, armaturaning joylashish tig'izligi buyumning og'irligi va yuzasining tekislik darajasi. Shu ko'rsatkichlar bo'yicha texnologik liniyaning yillik ishlab chiqarish quvvatiga ko'ra buyumlar tayorlanadi.

Bir guruhga birlashtirish jarayoni bir-biriga yaqin buyumlarning asosiy texnologiyasini tanlashdan boshlanadi va bunday buyumlarga ehtiyoj doimiy bo'lishi nazarda tutiladi. Guruhlar soni texnologik liniyalarning soniga teng bo'lishi kerak. Shundan so'ng asosiy buyumlar guruhiga ular xususiyatiga ko'ra yaqin bo'lgan buyumlar tanlanadi va bunda ularning ishlab chiqarish hajmi asosiy buyumlar bilan noting ishlash ko'effitsientiga ko'paytirilganda eng yuqori bo'lishi kerak.

Stend usulida buyum qo'zg'almas qoliplarda qoliplanadi va u qoliplangan joyning o'zida qotadi. Texnologik jihoz va ish zvenolari bu vaqtda stenddagi bir qolipdan boshqasiga o'tib turadi. Armaturasi tortilgan uzun o'lchamli konstruksiyalarni uzun stendlarda (75-150 m va undan uzunroq) shuningdek uzunasiga bitta, eniga ikkita va undan ortiq buyumga mo'ljallangan kalta

stendlarda qoliplash mumkin. Uzun stendlar bir vaqtning o'zida birin - ketin joylashgan bir necha qolipda bir necha bir xil buyum tayorlash uchun ishlatiladi. Armaturani yotqizish, tortish, beton yotqizish va uni qotirish bir stendning o'zida amalgam oshiriladi.

Uzun stendlar tortiladigan sim yoki to'qilgan armatura paketi qayerda to'planishiga ko'ra paketli yoki tortiladigan turlarga bo'linadi. Paketli stendlarda tortilgan armatura paketi stenddan tashqarida - stend yonida bo'ladigan paket tayorlash linyasida tayorlanadi. Tortilgan stendlarda bunday paket qoliplash stendning uzida tayorlanadi. Stendlar shuningdek buyum va konstruksiyalarni tik yoki yotiq holatda qoliplash usuliga ko'ra ham farq qiladi. Universal turli buyumlar tayorlashga mo'ljallangan va ixtisoslashgan, ya'ni, bir turdagi buyumlarni tayorlashga mo'ljallangan stendlar ham mavjud.

Stend usuli bilan uskuna ko'p o'zgartirilmasdan turli buyum xillarini ishlab chiqarish mumkin. Stend linyalari katta o'lchamdagi buyumlar ishlab chiqarishda ayniqsa samarali hisoblanadi. Linyali stendlar oldindan zo'riqtirilgan ommaviy konstruksiyalar ishlab chiqarishda ayniqsa to'g'ri bo'ladi. Liniya stendlari bir necha buyumni stend uzunligi bo'yincha bir vaqtning o'zida ishlab chiqarish uchun ishlatiladi. Paketli stendlarida armatura paketlari alohida moslama yig'iladi so'ng stend yoki qolipning ushlab turish joyiga mahkamlanadi. Tortma stendlarida armatura stendning chetidagi g'altakdan tortib olinadi va stendning bor bo'yicha tortiladi.

Armatura joylash usuli uskunaning mexanizatsiyalashish darajasini belgilaydi. Paketli stendlarda armatura ixcham joylashadigan buyumlarni tayorlash maqsadga muvofiqdir. Paketdagi armatura gidrodomkrat bilan tortiladi. Armaturasi donalab yoki umumiy tortilishi talab etiladigan buyumlarni tortma stendlarda tayorlash maqsadga muvofiqdir. Qisqa stendlar uning bo'yiga barobar bo'lgan bir buyumni, yoki eniga ikkita buyumni tayorlashga mo'ljallangan. Armaturani tortish gidrodomkrat bilan stend tayanchida yoki elektr qizitish usuli bilan amalga oshiriladi. Stend texnologiyasi katta o'lchamli oldindan zo'riqtirilgan konstruksiyalar uzunligi 12 m dan ortiq va sanoat hamda

fuqaro qurilishi uchun mo'ljallangan qurilmalar uchun ayniqsa muvofiq keladi. Liniyalı stendlarda buyum tayorlash vaqtida quıdagi qoidalarga amal qilish lozim bo'ladi: liniyalı stendning uzunligi 75-120 m; stendning eni 3.6 m; sexdagi stendlar linyasining soni ishlab chiqarishni uzliksiz bo'lishini ta'minlash zarur biroq 2 donadan kam bo'lmasligi kerak.

Armatura sarfi quyidagi hollarda ayniqsa kam bo'ladi: 12-18 metrlik buyumlar uchun stend uzunligi 37,5-38 m bo'lganda; 12, 18 va 24 buyumlar uchun stend uzunligi 74-75,5 va 147-150,5 m 18-24 m buyumlar uchun 221-222m bo'lganda. Uzun stendlarda buyum tayorlash. Aksariyat yig'ma temir beton zavodlarida oldindan tortilgan temir-beton konstruksiyalar tayorlash uchun paketli stendlar ishlatiladi. Paketli stend ikkita qoliplash liniyasidan iborat bo'ladi. Kichik liniyalarda balandligi past bo'lgan buyumlar tayyorlanadi. Ikkinchi liniyada esa balandligi 2 m gacha bo'lgan buyumlar qoliplanadi. Paketlar alohida texnologik liniyalarda tayyorlanadi. Bunday liniyalarda g'altak va gidravlik press mavjud bo'ladi. Oxirgi qisqich o'rnatilgan tayyor paketlar 300-400 mm ga suriladi va keyingi paketning boshlanishiga qisqich tayyorlanadi ikkinchi va uchinchi qisqichlar o'rtasidagi simlar aylana arra bilan kesiladi. Chiyralgan armaturani yotqizish usuli paket stendlarinikidan farq qiladi. Stend o'ram tortuvchi aravacha bilan jihozlangan bo'ladi.

Buyumlar vertikal holatda qoliplanganda ikki xil qolip ishlatiladi, poddonga sharnir bilan biriktirilgan ochiladigan bortli va almashtiriladigan bortli. Qolip chetlari bortga mahkamlanadi. Buyum gorizontal holatda qoliplangada esa bort sifatida opalubka ishlatiladi va maxsus qotirish moslamalari bilan mahkamlanadi. Buyumlarni kalta stendlarda tayorlash. Zamonaviy zavod texnologiyasida kalta stentlar uzunligi 12-18 m bo'lgan yopqichlar, kolonna va karkazli binolar balkalari uzunligi 18 va 24 m bo'lgan yopma balka va fermalar tayyorlashda ishlatiladi. Kalta stendlarning o'zgartirish oson bo'lgan tenologiyasi qizuvchan qoliplar beradigan afzallik qoliplarining mahsulot berish darajasini 2-4 marta oshiradi.

Kalta stendlarda buyumlar gorizontol holatda tayyorlanadi. Ko'p zavodlar kalta stendlarda gorizontol holatda bir vaqtning o'zida 2 ta segment fermalari tayyorlanadi. Shu bilan birga 1,2 m, 1,1 m o'lchamli temir beton balka qoliplashga tayyorlangan ikkita fermaning pastgi belbog'idagi armaturalar tortilishi kuchini qabul qiladi. Fermalarni ommaviy ishlab chiqarganda mexanizatsiyalashgan buriladigan qolipli stend ishlatiladi. Issiqlik bilan ishlov berish tugaganidan so'ng tortilgan armatura sterjenlarning uchi qirqib tashlanadi. Qolip tozalanib moylanib navbatdagi qoliplashga tayyorlanadi. Armaturasi ikki o'q usulida tortiladigan buyumlar ikki tomonga ochiladigan turdagi stendlarda tayyorlanadi. Uning ishlash prinsipi shundan iboratki armatura bir yo'nalishda tortilganda stendning tortilishi hisobiga boshqa yo'nalishdagi armatura ham tortiladi. Armaturani tortish uchun gidrodomkirat ishlatiladi. Uzun o'lchamli buyumlar (balkalar) mexanizatsiyalashgan stendlarda tayyorlanadi. Qoliplash moslamasi poddonda ochiladigan yon bortlari va yechiladigan burchak bortlaridan iborat bo'ladi.

1.3. Korxonaning ish rejimi

Yig'ma temir beton buyumlari korxonalari uchun qabul qilinadi:

- yilda hisobiy ishchi sutkalari soni – 262;
- temir-yo'l transportida materiallar va xomashyoni tushirishda – 365
- sutkada ishchi smenalari soni (issiqlik ishlovisiz) - 2
- issiqlik ishlovida sutkada ishchi smena soni - 3
- xomashyo va materiallarni qabul qilish va tayyor mahsulotlarni yuklashda sutkada ishchi smenalar soni:

- a) temir yo'l transportida – 3 ;
- b) avtotransportda – 2 yoki 3;

Yilda ishchi sutkalari soni (262) 5 kunlik ish haftasidan kelib chiqiladi.

5 kunlik ish haftasi bo'yicha ish rejimi qabul qilinadi:

- a) 2 smenada – 8 soat, jami sutkada 16 soat, bunda 2 ta tushlik 1 soatdan;
- b) 3 smenada - 1 chi va 2chi smenalar 8 soatdan (tanaffus – 0,5 soat); 3chi smena 7 soat tanafussiz. Ja'mi sutkada 23 ishchi soati.

Asosiy texnologik jihozlarning yillik ish vaqti soni – 247 kun.

Asosiy texnologik jihozlarning yillik foidalanish ko'ffisienti - $247:262=0,943$;

1.3- jadval

Korxonaning ish rejimi

t/r	Sex yoki bo'limlar nomlanishi	Yilda sutkal ar soni	Sutkada smenalar soni	Ishchi smena davomi yligi soni	Ishchi vaqti yillik fondi	Ekspluat asiya vaqtidan foidalanish ko'ffisient	Ekspluat asiya vaqti yillik fondi
1	Qoliplash	262	2	8	4192	0.943	3953
2	Issiqlik ishlovi berish	262	2	8	4192	0.943	3953

1.4. Buyum turlari bo'yicha sex mahsuldorligini hisoblash

Korxonaning yillik ishlab chiqarish dasturi va buyumning nomenoklaturasi topshiriqda berilgan. Korxonaning ish rejimidan kelib chiqib buyum va yarim fabrikat ishlab chiqarishdagi yuqotish va brakki inobatga olgan holda hisoblanadi.

Temir - beton korxonalari uchun:

- beton qorishmalari uchun – 0,5 % gacha
- buyum bo'yicha - 1,0% gacha

Har bir texnologik bosqich uchun ishlab chiqarish quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$M_x = \frac{M_T}{1 - \frac{B}{100}} = \frac{44000}{1 - \frac{1.5}{100}} = 44670m^3$$

Bu yerda: M_x - hisobiy ishlab chiqarish.

M_T – korxonaning topshiriq bo'yincha ishlab chiqarishi.

B – ishlab chiqarishdagi brak, 1,5%.

1.4-jadval

Sex (korxonalar) ning ishlab chiqarish rejasi

T/r	Buyum nomi	O'lchov birligi	Hisoblash formulasi	Mahsuldorlik			
				yilda	sutkada	smenada	soatda
1	Bir konsolli ustun	m ³	$M_x = \frac{M_T}{1 - \frac{B}{100}}$	44670	170,5	85,25	10,66
2	Bir konsolli ustun	dona	$\frac{M_x}{V_M}$	15954	60,89	30,45	3,81

1.5. Xom ashyo va yarim fabrikatlarga korxonaning talabini aniqlash

Qurilishda sement yoki boshqa noorganik bog'lovchi moddalardan tayorlangan betondan keng ko'lamda foydalaniladi. Bu betonlar asosan suv bilan qorishtiriladi. Betonning faol tashkil etuvchilari sement va suvdir, ularning reaksiyaga kirishishi natijasida to'ldiruvchi zarralarini biriktiradigan yaxlit quyma sement toshi hosil bo'ladi. Sement va suv betonning faol tarkibiy moddalari hisoblanadi: ular orasidagi reaksiyalar natijasida to'ldiruvchi zarralarini yaxlit monolitga bog'lovchi sement toshi paydo bo'ladi.

Beton ishlab chiqarishda eng ko'p qo'llaniladigani portlandsementdir.

Portlandsement – gidravlik bog'lovchi moddadir, suvda juda yaxshi qotadi yoki havoda. Bu – kul rangdagi kukun bo'lib, klinkerni mayin tuyib gips qo'shib olinadi. Klinkerni esa aniq miqdorda olingan tarkibida 75-78% CaCO_3 va 22-25% ($\text{SiO}_2 + \text{Al}_2\text{O}_3 + \text{Fe}_2\text{O}_3$) bo'lgan xom ashyo aralashmasini bir tekisda pishgunga qadar kuydirib, olinadi.

Portlandsement tarkibidagi turli minerallarning taxminiy miqdori quyidagini tashkil etadi:

1) 3CaO SiO_2 37-60%;

- 2) 2CaO SiO_2 15-37%;
- 3) $3\text{CaO Al}_2\text{O}_3$ 5-15%;
- 4) $\text{CaO Al}_2\text{O}_3 \text{ F}_2\text{O}_3$ 10-18%.

Har qanday sementning asosiy xususiyatini xarakterlovchi jixat – uning mustahkamligi hisoblanadi. Sement markasi $4 \times 4 \times 16$ sm o'lchamli, 1:3 nisbatdagi volsk qumili qorishmadan tayorlangan, 28 kun davomida $20 \pm 2^\circ\text{C}$ haroratli suvda qotgan yarim balkachalarning siqilishdagi mustaxkamligiga mos keladi.

Sement siqilishga mustahkamligi 30-60 MPa ga, mos holda balkachalarning egilishga mustaxkamligi 4,5-6,6 MPa ni tashkil etadi.

Sementning haqiqiy mustaxkamligini uning aktivligi deb ataydilar.

Betonda yirik va mayday to'ldiruvchilar qo'llaniladi. Donalari 5 mm dan kattaroq yirik to'ldiruvchilarni shag'al va chaqilgan tosh turlariga ajratiladi. Betondagi mayda to'ldiruvchilar tabiiy va sun'iy qum hisoblanadi. Chaqilgan toshni tog' jinslarini maydalash orqali olinadi. Qurilishda aksariyat ohaktosh va granitdan olingan chaqilgan toshlar ishlatiladi. Shag'al sirti tekis va shamolda nuragan tog' jinslarini noaniq aralashmasini ifodalaydi.

Qum o'zida uvalangan mayda zarrali tarkibni ifodalab, u tog' jinslarining shamol ta'sirida nurashi natijasida yuzaga keladi. Aksariyat minerallarning zarralari aralashgan kvars qumlari, kam hollarda esa dalashpatli va ohaktoshlilari uchraydi.

To'ldiruvchilar betonnig 80% hajmini egallab, uning xususiyatlariga, uzoq muddatga chidamliligiga va narxiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. To'ldiruvchilarning betonga kiritilishi bilan, betondagi eng qimmatbaho hisoblangan xom ashyo – sement sarfini keskin kamayishiga erishiladi. Bundan tashqari, to'ldiruvchilar betonning texnik xususiyatlarini yaxshilaydi.

Shag'al deb, yirikligi 5 mm dan 70 mm gacha tog' jinsi tosh bo'laklariga aytiladi.

Shag'al donasi yuqori darajali jinslar bo'lgan granitlar, gneyslar, diabazlar, ohaktoshlar va qum-tuproqlardan iborat bo'ladi.

Dengiz qirg'oqlarida va daryo havzalarida mavjud shag'al donalari o'ta silliq yuzali bo'lib, tuxumsimon yoki oval disk shaklida bo'ladi, betonda sement toshi bilan yomon bog'lanadi. Shu sababli, shag'al tosh mustahkamlik chegarasi 30MPa dan ortiq bo'lmagan betonlarda qo'llaniladi. Shag'alning yirik fraksiyalari chaqiq tosh olish uchun maydalashda ishlatiladi.

Chaqiq tosh tog' jinslarini maydalash asosida olinadi. Chaqiq tosh yuqori mustahkamlikdagi betonlar uchun sifatli yirik to'ldiruvchi sifatida ishlatiladi.

Chaqiq tosh olishda asosiy xom ashyo sifatida otqindi tog' jinslari – granit, gablo, diabaz, basalt va karbonat cho'kindi jinslari ohaktosh va dolomitlar ishlatiladi.

Beton va beton qorishmasining xususiyatlarini boshqarish uchun uning tarkibiga kimyoviy qo'shimcha aralashtirilib, beton qorishmasining qotishi tezlashtiriladi yoki sekinlashtiriladi, uni ancha plastic va qulay quyiluvchanligi oshiriladi, qotish jarayoni tezlashtiriladi, uning mustahkamligi va sovuqqa chidamliligini ko'tariladi. Zarur hollarda beton xususiyatlari boshqa yo'nalishda o'zgartiriladi.

Beton xususiyatlari, qorishmalarini regulirovka qilish uchun va sementni iqtisod qilishda betonga turli qo'shimchalar aralashtiriladi, ular kimyoviy moddalar va mayday yanchilgan materiallar ko'rinishda bo'ladi.

Kimyoviy moddalar beton tarkibiga sement massasidan 0,1-2% miqdorda beton qorishmasi va betonning xususiyatini kerakli tomonga o'zgartirish uchun qo'shiladi. Mayda yanchilgan materiallar, beton tarkibiga 5-20% miqdorda va sementni oz miqdorda sarf qilib, anchagina zich beton olish uchun qo'shiladi.

Keyingi vaqtlarda qurilishda yangi kimyoviy qo'shimchalar – superplastiklovchilar ishlab chiqarilmoqda va amalgam oshirilmoqda. Bu qo'shimchalar beton qorishmasining harakatchanligini va oquvchanligini keskin oshiradi va betonning texnologik xususiyatlarini yaxshilaydi. Ko'pincha superplastiklovchilar – sintetik polimer moddalar, qaysiki, beton qorishmasiga kiritilgandan keyin 2-3 soat bo'ladi. Ishqor muhitning ta'sirida ular qisman

tarkibini buzadi va boshqa moddaga, beton uchun zararsiz moddaga aylanadi va uning qotishiga monelik qilmaydi.

Superplastiklovchilarning kiritilishi asosan temir-beton ishlab chiqarishda samaralidir, qaysiki, beton qotishi tezligining oshishi katta ahamiyatga ega va oddiy plastiklovchi qo`shimchalardan foydalanish beton qotishini sekinlatadi va natijada maxsus choralar ko`rish zarurati yuzaga keladi: beton qorishmasiga bir vaqtning o`zida qotishni tezlatuvchi moddani kiritilishi va issiqlik bilan ishlov berishning mo`tadil tartibini qo`llash kerak bo`ladi. Bundan tashqari, superplastiklovchilar oddiy plastiklovchilarga nisbatan beton qorishmani yuqori darajada suyultiradi, masalan qorishmaning harakatchanligini konus cho`kmasi bo`yicha 2 sm dan 20 sm ga oshiradi.

RELAMIKS T-2 – superplastiikatorlar guruhiga kiruvchi kompleks qo`shimcha bo`lib, beton mustahkamlikka e`rishishni tezlashtirish xususiyatiga ega. RELAMIKS T-2 beton qotishini tezlashtirish turli molekulyar massalar, natriyli tuzlar va polimetilennaftalinsulfokislotadan tashkil topgan. Qorishma tarkibida xlorli birikmalar mavjud emas,

RELAMIKS T-2 superplastifikatordan temir-beton mahsulotlarida shu jumladan oldindan zo`riqtirilgan konstruksiyalarda, siqilishga bo`lgan mustaxkamligi B15 va undan yuqori klassli bo`lgan zoch betonli konstruksiyalar ishlab chiqarishda, yengil betondan ishlab chiqarilgan konstruksiyalarda, yupqa devorli konstruksiyalarda va murakkab konfigurasiyalı konstruksiyalarda foydalanish tavsiya etiladi.

Og'ir beton tarkibini hisoblash

Boshlang'ich ma'lumotlar:

Beton markasi – M 300

Beton ishlatilishi - bir konsolli ustun

Beton qorishmasini harakatchanligi, standart konus cho`kmasi OK – 4 sm

Ishlatiladigan materiallarning xarakteristikaları:

1.Bog'lovchi materiallar – portlandsement

Sementning aktivligi - $R_s = 400$

Sementning solishtirma og'irligi - $\rho_{sem} = 3,1 \text{ g/sm}^3$

Sementning hajm og'irligi - $\rho_{sem}^0 = 1,3 \text{ g/sm}^3$

2. Mayda to'ldiruvchi – daryo qumi.

Qumning solishtirma og'irligi - $\rho_q = 2,6 \text{ g/sm}^3$

Qumning o'yma hajm og'irligi - $\rho_q^0 = 1,4 \text{ g/sm}^3$

Qumning yiriklik moduli – $M_{kp} = 2,2$

3. Yirik to'ldiruvchi - sheben

Shebenning solishtirma og'irligi - $\rho_{sh} = 2,6 \text{ g/sm}^3$

Shebenning o'yma hajm og'irligi - $\rho_{sh}^0 = 1,4 \text{ g/sm}^3$

Shebenning zaralararo bo'shliqlari $V_k = 0,46$ ya'ni 46%

Shebenning donadorlik tarkibi – 40 mm

Hisoblash

Hisob 1 m^3 beton uchun olib boriladi.

1. Berilgan sementning aktivligi (R_{sem}) talab qilingan beton mustahkamligini oshirishi shart asosida suv-sement nisbati (s/sem) aniqlanadi.

Beton mustahkamligi R_b (s/sem) = 0,4 va undan yuqori bo'lganda quyidagi formula bilan ifodalanadi.

$$R_b = R_s \cdot A \left(\frac{S}{Sem} - 0,5 \right),$$

Suv - sement nisbati quyidagi formula asosida aniqlanadi;

A-koeffisient to'ldiruvchilar sifatida bog'liq bo'lib yuqori sifatli to'ldiruvchilar uchun (yuvilgan va fraksiyalangan sheben va qum) 0.5 ga teng.

$$\begin{aligned} \left(\frac{S}{Sem} \right)_b &= A \cdot R_y / (R_b + 0,5 A \cdot R_{sem}) = \\ &= \frac{0,65 \cdot 400}{300 + 0,5 \cdot 0,65 \cdot 400} = 0,6 \end{aligned}$$

2. 1m^3 beton qorishmasi tayorlash uchun suv miqdorini 1.4 – jadvaldan aniqlanadi (“Beton va temir beton buyumlari texnologiyasi” fani bo’yicha tajriba mashg’ulotlarini bajarish uchun uslubiy qo’llanma).

$$S = 175 \text{ kg (litr)}$$

3. Aniqlangan suv – sement nisbati va suv miqdoriga asosan beton qorishmasi tayorlash uchun sement miqdori (kg) aniqlanadi.

$$Sem = \frac{S}{(\frac{S}{Sem})_b} = \frac{175}{0,6} = 292\text{kg}$$

Beton qorishmasining suvga talabchanligi

Beton qorishmasini joylashuvchanligi		Suv sarfi l/m^3 shag’al va chaqiq toshning yirikligi bo’yicha, mm							
		Graviy				Sheben			
Konusning cho’kishi sm	Qattiqligi	10	20	40	70	10	20	40	70
-	40.....50	150	135	125	120	160	150	135	130
-	25.....35	160	145	130	125	170	160	145	140
-	15.....20	165	150	135	130	175	165	150	145
-	10.....15	175	160	145	140	185	175	160	155
2.....4	-	190	175	160	155	200	190	175	130
5.....7	-	200	185	170	165	210	200	185	180
8.....10	-	205	190	175	170	215	205	190	185
10.....12	-	215	20	190	180	225	215	200	190
12.....16	-	220	210	197	185	270	220	207	195
16.....20	-	227	218	203	192	237	228	213	202

Yirik to'ldiruvchilar donalarini oralig'ni belgilovchi koeffisient

Sement sarfi kg/m ³	Koeffisient α , S/S da					
	0.3	0.4	0.5	0.6	0.7	0.8
250	-	-	-	1.26	1.32	1.38
300	-	-	1.3	1.36	1.42	-
350	-	1.32	1.38	1.44	-	-
400	1.31	1.4	1.46	-	-	-
500	1.44	1.52	1.56	-	-	-
600	1.52	1.56	-	-	-	-

4. 1m³ beton qorishmasi uchun yirik to'ldiruvchilar sarfi quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$Sh = \frac{1000}{\left(\frac{V_k \cdot \alpha}{\rho_{sh}^0 + \frac{1}{\rho_{sh}}} \right)} = \frac{1000}{\frac{0,46 \cdot 1,36}{1,4} + \frac{1}{2,6}} = 1205 \text{ kg}$$

- yirik to'ldiruvchilar donalarini oralig'ni belgilovchi koeffisient jadvaldan aniqlanadi. ("Beton va temir – beton buyumlari texnologiyasi" fani bo'yicha tajriba mashg'ulotlarini bajarish uchun uslubiy qo'llanma).

5. 1m³ beton qorishmasi uchun mayday to'ldiruvchilar sarfi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Q = \left[1 - \left(\frac{Sem}{\rho_{sem}} + \frac{S}{\rho_s} + \frac{Sh}{\rho_{sh}} \right) \right] \cdot \rho_q = \left[1000 - \left(\frac{292}{3,1} + \frac{175}{1} + \frac{1149}{2,6} \right) \right] \cdot 1,4 = 404,6 \text{ kg}$$

1 m³ beton qorishmasi uchun Relamix T-2 sarfini aniqlash.

$$RelamixT - 2 = \Pi \cdot \frac{0,8}{100} = 292 \cdot \frac{0,8}{100} = 2,34 \text{ kg}$$

1 m³ beton qorishmasi uchun Relamix T-2 qo`shimchasi qo`shilganda suv sarfini kamaytirish:

$$Q_f = \text{suv} - Q_{R,P} \cdot \rho_p \cdot (1-10/100),$$

$$Q_f = 175 - 17,6 \cdot 1,049 \cdot (1-10/100) = 158 \text{ m}^3$$

1m³ beton qorishmasi hajmi og'irligi:

$$\rho_{b,k} = \text{Sem} + S + Sh + Q + \text{Relamix T-2} = 292 + 175 + 1149 + 404,6 + 2,34 = 2023,34 \text{ kg/m}^3$$

Xom ahyo materiallarining transportirovka qilish vaqtida 2% yuqotishlarni hisobga olgan holda, 1 m³ beton uchun xom ashyo sarfi.

$$\text{Sement} = 292 + 292 \cdot 0,02 = 297,8 \text{ kg}$$

$$\text{Sheben} = 1205 + 1205 \cdot 0,02 = 1229 \text{ kg}$$

$$\text{Qum} = 404,6 + 404,6 \cdot 0,02 = 412,7 \text{ kg}$$

$$\text{Relamix T-2} = 2,34 + 2,34 \cdot 0,02 = 2,39 \text{ kg}$$

$$\text{Suv} = 158 + 158 \cdot 0,02 = 171 \text{ kg}$$

$$\text{Armatura} = 62,9 + 62,9 \cdot 0,02 = 64,16 \text{ kg}$$

Xom ashyo materiallarining yillik sarfi

$$\text{Sement} = 297,8 \cdot 44670 = 13302726 \text{ kg} = 13302,73 \text{ t}$$

$$\text{Sheben} = 1229 \cdot 44670 = 54899430 \text{ kg} = 54899,43 \text{ t}$$

$$\text{Qum} = 412,7 \cdot 44670 = 18435309 \text{ kg} = 18435,31 \text{ t}$$

